

Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yil yanvar-fevral oylarida, Farg'ona viloyatida jami 1808,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 111,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Farg'ona viloyati	1 808,8	111,6
shaharlar:		
Farg'ona shahri	375,7	113,5
Qo'qon shahri	96,3	106,9
Quvasoy shahri	29,9	104,8
Marg'ilon shahri	224,2	102,0

davomi

	Hajm, mlrdso'm	O'sish sur'ati, %
tumanlar:		
Oltiariq tumani	25,1	104,9
Qo'shtepa tumani	115,3	172,9
Bag'dod tumani	35,3	103,9
Buvayda tumani	30,8	104,5
Beshariq tumani	17,4	102,3
Quva tumani	23,0	116,1
Uchko'prik tumani	42,0	105,5
Rishton tumani	18,9	108,0
So'x tumani	12,0	109,2
Toshloq tumani	41,9	103,6
O'zbekiston tumani	35,7	100,2
Farg'ona tumani	31,5	108,4
Dang'ara tumani	64,0	102,6
Furqat tumani	29,5	103,7
Yozyovon tumani	21,7	109,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 77,8 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,1 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 32,3 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,1 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 137,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	188,2	117,6	21,2
<i>o'sish sur'ati, %</i>	87,5	54,7	175,7
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	567,5	273,4	83,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	117,9	56,8	130,7
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	557,0	0,1	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	108,5	0,1	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-fevral oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 327,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 113,7 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 0,3 % ga ko'payib, 18,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 51,1 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 112,9 % ni tashkil etgan holda 924,7 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 30,8 % ni yoki 557,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Shahar, tumanlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Farg'ona viloyati	327,0	924,7	557, 1	113,6	112,9	108,5
shaharlar:						
Farg'ona shahri	72,3	266,0	37,4	250,2	101,1	95,5
Qo'qon shahri	6,5	75,5	14,3	2094,6	96,7	123,2
Quvasoy shahri	0,7	23,4	5,8	109,3	105,8	100,6
Marg'ilon shahri	75,2	133,6	15,4	48,5	266,5	105,7
tumanlar:						
Oltiariq tumani	2,4	13,9	8,8	71,8	112,1	107,7
Qo'shtepa tumani	85,3	20,9	9,1	640,9	47,0	103,6
Bag'dod tumani	1,9	27,8	5,6	190,8	100,4	107,2
Buvayda tumani	0,8	24,0	6,0	5,2	297,7	105,7
Beshariq tumani	1,1	6,5	9,8	87,7	102,3	104,3
Quva tumani	1,2	9,9	11,9	66,8	154,2	103,0
Uchko'prik tumani	0,7	35,7	5,6	62,8	106,8	105,2
Rishton tumani	1,0	12,3	5,6	65,9	117,7	100,6
So'x tumani	2,3	6,6	3,1	10705,3	82,1	107,8
Toshloq tumani	4,5	26,5	10,9	203,9	95,2	105,2
O'zbekiston tumani	1,6	25,0	9,1	104,3	93,9	121,5
Farg'ona tumani	12,0	17,5	2,0	63,8	207,9	107,7
Dang'ara tumani	3,6	52,0	8,4	323,7	97,7	103,5
Furqat tumani	0,7	9,9	18,9	78,5	92,0	112,8
Yozyovon tumani	3,2	10,9	7,6	90,8	130,2	96,8

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari 2025-yilning mos davriga nisbatan So'x tumanida 107,1 marta va Qo'qon shahrida 20,9 marta qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Buvayda tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 3,0 marta), Marg'ilon shahrida (2025-yilning mos davriga nisbatan 2,7 marta) va Farg'ona tumanida (2,0 marta) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining Farg'ona viloyat boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>